

IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINING ROLI

D.Norboyeva

Jizzax politexnika instituti

Iqtisodiyot va menejment kafedrası o'qituvchisi

Sh.Xasanov

Kibersport fakulteti 501-24 guruh talabasi

Annotasiya: Mazkur maqolada kichik biznes va tadbirkorlikning mamlakat iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishdagi roli ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Tadbirkorlik, kichik biznes, iqtisodiy taraqqiyot, ish o'rinlari, daromad, farovonlik.

Annotation: In this state, the role of small business and entrepreneurship in the conditions of economic progress, in the writings of the new formation, in particular, in the messages of incomes and the welfare of the population, are enlightened.

Keywords: entrepreneurship, small business, economic development, jobs, income, prosperity.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini taraqqiy ettirishda kichik biznes va tadbirkorlik alohida ahamiyat kasb etadi va hozirgi sharoitda uning roli yanada ortib bormoqda. Shu sababdan ham kichik biznes va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish har qanday mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlovchi asosiy bo'g'in va amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Iqtisodiyotda ro'y berayotgan turli ijobiy o'zgarishlar ko'p jihatdan kichik biznes va tadbirkorlikning rivojlanishi bilan uzviy bog'liqdir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlab o'tganlaridek: "...jiddiy va kundalik e'tiborini talab qiladigan yana bir muhim yo'nalish bor. Bu - xususiy mulk va tadbirkorlikni yanada rivojlantirish va ularning ta'sirchan himoyasini ta'minlashdir".

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining «Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari» nomli bobida tadbirkorlik va biznesni rivojlantirish asosida yangi ish o'rinlarini yaratish hamda aholining, eng avvalo, ta'lim muassasalari bitiruvchilarining ish bilan bandligini ta'minlash, ishsizlik darajasini kamaytirish vazifasi belgilangan.

Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish asosida bir qator ijtimoiy-iqtisodiy vazifalar hal etilishi nazarda tutiladi:

birinchidan, jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, kichik biznes ichki bozorni zarur tovar va xizmatlar bilan to'ldiradigan, iqtisodiyotning tarkibiy negizini belgilab beradigan eng muhim sektor hisoblanadi, shuningdek, aholini, ayniqsa, yoshlarni ish bilan ta'minlashda, ularning iqtisodiy mustaqillikka erishishlari va hayotda o'z o'rinlarini topib ketishlarida eng asosiy omil va manba bo'lib xizmat qiladi;

ikkinchidan, hozirgi sharoitda jahon va mintaqaviy bozorlarda raqobat keskinlashib borayotgani hammaga ayon. Aynan kichik biznes o'zining harakatchanligi, kam sarmoya talab qilishi hisobidan ishlab chiqarishni yengilroq va tez modernizatsiya qilish, ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlarini yangilash imkoniyatiga ega ekani va shu tariqa bozor konyunkturasi o'zgaruvchan talablariga yaxshi moslasha olishi bilan e'tiborlidir;

uchinchidan, kichik biznes va tadbirkorlik o'sishi bilan mamlakat tayanchi va suyanchi bo'lgan mulkdorlar o'rta sinfini shakllan-tirish vazifasi bevosita hal etiladi. Umuman aytganda, kichik biznes va tadbirkorlik bugungi kunda aholi bandligini ta'minlaydigan va uning asosiy daromad manbayi bo'lgan muhim bo'g'in hisoblanmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishdagi rolini inobatga olgan holda quyidagi xulosalarni qilish mumkin:

- aholini ish bilan bandligini ta'minlash, mahalliy resurslardan samarali foydalanish asosida mahalliy sanoat tarmoqlarini rivojlantirish, shuningdek mamlakatning eksport salohiyatini oshirishda bu sohaning ahamiyatini yanada oshirish chora-tadbirlarini takomillashtirish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishini tahlil qilish asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yo'nalishlari bo'yicha uning iqtisodiy o'sish ko'rsatkichi hududlarda mamlakatning o'rtacha ko'rsatkichlari darajasiga yetishini ta'minlashga erishish orqali hududlar rivojlanishini muvofiqlashtirishga intilish;
- mahalliy resurslar asosida ishlab chiqarishni tashkil etish kam investitsiya mablag'larini talab etishini, ularning bozor konyunkturasi talablariga tez moslasha olishiga imkon berishini inobatga olish.

Kelgusida mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun quydagilarni taklif qilamiz:

- Yangi kichik sanoat zonalarini tashkil etish va faoliyat yuritayotganlarining samaradorligini oshirish maqsadida: kichik sanoat zonalarini ishtirokchilarining zaruriy muhandislik-kommunikasiya tarmoqlariga ulanish xolatini tanqidiy o'rgangan holda tegishli chora-tadbirlar rejasini tasdiqlash; kichik sanoat zonalariga ularning ixtisoslashuvi, xududning resurs salohiyatini inobatga olgan holda, ishlab chiqarishning to'liq siklini amalga oshiruvchi tadbirkorlik sub'ektlarini joylashtirish;
- investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirish va ishtirokchilarga yuklatilgan majburiyatlarning ijrosi yuzasidan tizimli monitoring olib borish;
- kichik sanoat zonalarini hududida yangi investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirishda tijorat banklarining ishtirokini kengaytirish. Bu esa o'z navbatida Foydalanilmayotgan davlat mulki ob'ektlaridan oqilona va samarali foydalanish, zamonaviy va raqobatdosh mahsulotlarni ishlab chiqarishni tashkil etish, yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi daromadlarini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. www.uza.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida, Toshkent shahri, 2017 yil 7 fevral.
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari www.stat.uz
4. Shermuxamedov B.U. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakatimiz iqtisodiyotidagi o'rni. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. № 5, oktyabr, 2017 yil